




Korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil 1-iyun holatiga)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2019-yilning 1-iyun holatiga 383,5 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,2 foizga o'sgan. Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 62,8 mingta (20,7 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 366,2 mingtani tashkil etgan.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil 1-iyun holatiga)


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yilning 1-iyun holatiga 383,5 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20,2 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,4 % savdo, 17,8 % sanoat, 8,7 % qurilish, 7,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 2,0 % axborot va aloqa, 1,9 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 27,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (93411 ta) savdo, (68191 ta) sanoat, (33249 ta) qurilish, (28389 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (24518 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (15281 ta) tashish va saqlash, (7837 ta) axborot va aloqa, (7459 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda (105143 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 366,2 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 62,8 mingta (20,7 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

17,8 %



Sanoat

24,3 %



Savdo

8,7 %



Qurilish

2,0 %



Axborot va aloqa

6,3 %




Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar

4,0 %



Tashish va saqlash

7,2 %




Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi

2,0 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy
xizmatlar ko'rsatish


27,7 %



Boshqa turlari

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'p Toshkent shahri (77328 ta), Toshkent (34206 ta), Farg'ona (33181 ta), Andijon (30307 ta) va Samarqand (29018 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Sirdaryo (11542 ta), Navoiy (13335 ta) hamda Jizzax (16167 ta) viloyatlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-may oylarida 49376 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 24157 taga ko'pdir.



2019-yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo

38,5 %



Sanoat

21,9 %



Qurilish

9,2 %



Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar

6,9 %



Tashish va saqlash

2,9 %



Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi

7,3 %



Axborot va aloqa

1,5 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy
xizmatlar ko'rsatish



1,3 %



Boshqa turlari

10,5 %



Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (19033 ta), sanoat (10821 ta), qurilish (4532 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (3580 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (626 ta), axborot va aloqa (748 ta) hamda tashish va saqlash (1455 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

2019-yil yanvar-may oylarida
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Savdo



19033

Tashish va
saqlash



1455

Yashash va
ovqatlanish bo'yicha
xizmatlar



3422

Qurilish



4532

Sanoat



10821

Axborot va aloqa



748

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish



626

Qishloq, o'rmon
va baliq xo'jaligi



3580


Boshqa
turlari




5159

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Toshkent shahri (9806 ta), Toshkent (4648 ta), Samarqand (4550 ta) va Farg'ona (4323 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirdaryo (1390 ta), Jizzax (2143 ta), Navoiy (2385 ta) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (2106 ta) korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.



Korxonalar sonining o'sishi, birlikda

Tijorat korxonalari


(2019-yil 1-iyun holatiga)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Faoliyat ko'rsatayotgan
tijorat korxonalar va
tashkilotlar soni 306,5
mingtani tashkil qildi

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat
ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati
cheklangan jamiyati




Xususiy korxona




Oilaviy
korxona




Unitar korxona



Aksiyadorlik
jamiyati



Boshqalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar


2019-yil 1-iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 8785 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 2658 taga yoki 43,4 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

1-iyun holatiga

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati %




Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 4521 tasi qo'shma, 4264 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.





Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Toshkent shahrida 5332 ta (jamidagi ulushi 60,7 %), Toshkent viloyatida 953 ta (10,8 %) va Samarqand viloyatida 450 tani (5,1 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xorazm 97 ta (1,1 %), Sirdaryo 122 ta (1,4 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi 133 ta (1,5 %), Qashqadaryo 145 tani (1,6 %) hamda Navoiy viloyatlarida 154 ta (1,7 %) tashkil etgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar




1

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


2019-yilning yanvar-may oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 1446 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 670 taga ko'paygan.



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 214 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 224 ta, Turkiya Respublikasi – 206 ta, Qozog'iston Respublikasi – 148 ta, Koreya Respublikasi – 99 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 555 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 440 ta sanoat, 411 ta savdo, 171 ta qurilish, 126 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 141 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarni yillar kesimida soni



2019-yil 1-iyun holatiga respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 304,2 mingtani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 24,1 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-may oylarida 47,5 mingtaga yaqin kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 25,3 mingtaga ko'proqdir.

2019-yil 1-iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi

• Eng katta ulushi



•Toshkent sh.
22,3 %



•Toshkent
9,3 %



•Farg'ona
9,0 %



•Andijon
8,4 %



•Samarqand
7,7 %



•Namangan
6,5 %



Qashqadaryo
6,1 %



•Buxoro
5,9 %



•Xorazm
4,6 %



•Surxondaryo
4,6 %



•Qoraqalpog'iston R.
4,5 %



•Jizzax
4,3 %



•Navoiy
3,7 %




•Sirdaryo
3,1 %

• Eng kichik ulushi

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 304,2 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 88,3 mingta (29,0 %) - savdo, 64,7 mingta (21,3 %) - sanoat, 31,6 mingta (10,4 %) - qurilish, 26,0 mingta (8,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 22,9 mingta (7,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 14,5 mingta (4,8 %) - tashish va saqlash, 7,2 mingta (2,4 %) - axborot va aloqa sohasi, 5,8 mingta (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, 43,2 mingtasi (14,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

**Qishloq, o'rmon
va baliq xo'jaligi**

7,5



Sanoat

22,7



Qurilish

9,5



Savdo

40,0



Tashish va saqlash

3,1



**Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar**

7,2



Axborot va aloqa

1,6



**Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish**

1,1




Boshqa turlari

7,3



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 19015 ta, sanoat 10803 ta, qurilish 4523 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3418 ta tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 541 ta, axborot va aloqa 744 ta hamda tashish va saqlashda 1454 ta tashkil etilgan.


Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Toshkent shahri (9498 ta), Toshkent (4494 ta), Samarqand (4342 ta) va Farg'ona (4177 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Sirdaryo (1331 ta), Jizzax (2035 ta) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (2021 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1-iyun holatiga)




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Faoliyat ko'rsatmayotgan




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Faoliyat ko'rsatmayotgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda

(2019-yil 1-iyun holatiga)




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




● Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ● Sanoat ● Qurilish ● Savdo
● Tashish va saqlash ● Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ● Axborot va aloqa
● Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ● Boshqa turlari

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 35,9 % yoki 7608 tasi sanoat, 21,5 % yoki 4556 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 20,2 % yoki 4288 tasi savdo, 10,3 % yoki 2193 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,0 % yoki 201 tasi qurilish, 1,1 % yoki 224 tasi tashish va saqlash, 1,0 % yoki 210 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,9 % yoki 196 tasi axborot va aloqa hamda 8,1 % yoki 1717 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda




2019-yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Sanoat




Savdo




Yashash va ovqatlanish xizmatlari




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Tashish va saqlash




Qurilish



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Axborot va aloqa



Boshqa turlari

**Statistik registrarni yuritish va
tizimli xizmat ko'rsatish
boshqarmasi.**

Tel.:71-230-80-90(91)